

TIBBIY TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLAR

Nuriddinova Shahzoda Shokirjon qizi

*Angren Aby Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi
texnikumi mutahassislik fan o'qituvchi*

Annotatsiya. Bilamizki o'qituvchi faoliyatida o'quvchilar bilan pedagogik hamda psixologik aloqalarning uzluksizligi ta'lim - tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar o'rnatish, ijobiy iqlim yarata olish, ularni o'ziga ishontira olish va jalb qilish o'qituvchidagi kommunikativ qobiliyatning asosiy mohiyati bo'lib, bunda bevosita o'qituvchi bilan bog'liq bo'lgan minglarcha ruhiy jarayonlar, ma'lum bir qolipdan chiqishi mumkin bo'lmagan muomala turlari va shartlari mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim- tarbiya va ilm- fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: ta'lim, tibbiyot, kommunikatsiya, psixiologiya, motivatsiya, xotira, ma'naviyat, bilim.

Abstract. We know that the continuity of pedagogical and psychological relations with students in the teacher's work is one of the main laws of education. Establishing positive relationships with students in the educational process, creating a positive climate, convincing and engaging them is the main essence of the teacher's communicative ability, which is directly related to the teacher. There are thousands of mental processes, types of behavior and conditions that cannot be out of a certain pattern. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On Measures for the Development of Education and Science in the New Development Period of Uzbekistan" In recent years, improving the quality and efficiency of the education system in the country, Systematic work is being carried out on the formation of modern knowledge and skills of kindergarten students, pupils and students, close cooperation and integration between educational systems and the field of science, and ensuring the integrity and continuity of education. .

Key words: education, medicine, communication, psychology, motivation, memory, spirituality, knowledge.

Ma'lumki psixologiyada qiziqishning ikki turi o'quvchilarning ta'lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida o'z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o'quvchilarda ta'limga aktiv munosabat namoyon bo'ladi. Qiziqishlar o'quvchilar hayotida katta rol o'ynaydi. Ular o'quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar motivlardir. O'quvchilarning muayyan maqsadni ko'zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni yenga olishida, ishdan chalg'itadigan narsalar

bilan shug'ullanishdan o'zini tiya olishida unda o'qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo'ladigan iroda ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Tibbiy ta'lim jarayonini boshqarish muammosi ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, texnik va EXM vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchi ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Tibbiy ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Tibbiy ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umurbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushinib olish kifoya qilishi zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ritasavvurlar vujudga keladi. Tibbiy ta'lim jarayonining muvaffaqiyati malumotning tushunarligida – Motivatsiya, xotira, malumot usullari, malumotni qo'llashdadir. Ta'lim - tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishning shakl va uslublariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. O'qituvchining fikr almashuvi bilan bog'liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o'quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo'lib, nihoyatda, murakkab jarayonda takomillashadi. O'zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

1. o'quvchini ishontirish;
2. o'quvchi ongiga ta'sir etish;
3. o'zgalarga taqlid qilish

O'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilari ongini tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan, sinf jamoasi norasmiy yetakchilarining turli yashirin buzg'unchi g'oyalaridan himoya qilishga mas'ul shaxsdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. Muallim qalb me'mori: Saylanma. -T.: O'qituvchi,
2. Педагогика. (Под ред. П.И. Пидкасистого).- М.: Педагогическое общество России, 2003, 608 с.
3. Педагогика nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar)-T.:10T18OO-MO1UA,2007,380 b.
4. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 20
5. Nishanova S.Komil inson tarbiyasi- T : Istiqbol 2003
6. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T: 2008